

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimamatov	
Globallashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarning estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni	442
B.S.Sobirov	
Aktyorlik faoliyatini shaklantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janiriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atinig o'mni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achilidiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida ...	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviri san'atning o'rni	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviri san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish	544



УО'К:37.0:377.09

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTRISHNING PEDAGOGIK ZARURIYATI

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ НАПРАВЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИИ

PEDAGOGICAL NEED TO DIRECT STUDENTS TO A PROFESSION

Rafikova Dilafruz Kaxxaraliyevna

Farg'onan davlat universiteti, pedagogika kafedrası kata o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasb tanlash bu insonni o'zini anglash jarayoni ekanligi, kasbga yo'naltirishda o'qituvchining orni va ahamiyati, kasbga ijodiy munosabatni shakillantirish, o'quvchilarni zamon talablari asosida kasbga yo'naltirish, kasbiy maslahatlarni tashkil etilishining asosiy tomonlari, kasb egallash uchun yoshlar o'zlarini tayyorlab borishlari, zarrur ijtimoiy malaka hamda kasb tanlovchining psixologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda individual yondoshish kerakligini va yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etilishi haqida, donishmand - mutafakkirlar asarlarida yoshlarning odobi - axloqi, ta'llim-tarbiyasi hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakillantirish to'g'risida turli fikr - mulohazalar, maktab bitiruvchilarini va olyi ta'llim muassalarida yoshlarni kasbga tayyorlashda g'arb va yurtimizning mahoratli pedagog olimlarining kasb - humar ta'llimi sohalarida, jumladan, pedagog - mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish to'g'risida, o'qituvchining kasb madaniyati va mahoratiga oid xususiyatlari, o'quv faoliyatining psixologik tomonlari, ta'llim - tarbiya jarayonining ruhiy xususiyatlari haqida fikrlari va boshqa masalalar bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье выбор профессии – это процесс самосознания, роли и значения педагога в профориентации, формирования творческого отношения к профессии, ориентации студентов на профессию исходя из требований времени, основные аспекты организации профессиональной ориентации, для приобретения профессии, о том, как молодым людям следует готовиться, о необходимости индивидуального подхода, основанного на необходимых социальных навыках и психологических особенностях выбирающего профессию, об устранении проблем Возникшие по поводу нравов и нравственности, образования и профессиональных знаний и умений молодежи в трудах мудрецов и мыслителей различные мнения о формировании, подготовке выпускников школ и молодежи в высших учебных заведениях в области профессионального образования квалифицированных редакторов Запада и нашей страны, включая подготовку редакторов-специалистов, повышение их профессиональных навыков, об особенностях профессиональной культуры и навыков педагога, психологических аспектах образовательной деятельности, размышлениях о психических особенностях образовательного процесса и др. проблемы.

Abstract

In this article, choosing a profession is a process of self-awareness, the role and importance of the teacher in career guidance, the formation of a creative attitude towards the profession, orientation of students towards a profession based on the requirements of the time, the main aspects of organizing vocational guidance for acquiring a profession, about how young people should prepare, about the need for an individual approach based on the necessary social skills and psychological characteristics of those choosing a profession, about eliminating problems that have arisen regarding morals and morals, education and professional knowledge and skills of youth in the works of sages and thinkers, various opinions on the formation, preparation of school graduates and youth in higher education institutions in the field of vocational education of qualified editors of the West and our country, including the training of specialist editors, improving their professional skills, and the features professional culture and skills of a teacher, psychological aspects of educational activities, reflections on the mental characteristics of the educational process and other problems.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, ta'llim tizimi, tarbiya, ehtiyojlar, manfaatlar, qiziqish, qobiliyat, psixologik xususiyatlar, kasbning mohiyati, o'quvchining iste'dodi, imkoniyatlar, fan, o'qitish zaruriyati, bilim, ko'nikma, kasbiy kompetensiya, kasbiy maslahatlari.

Ключевые слова: выбор профессии, система образования, воспитание, потребности, интересы, интерес, способности, психологические особенности, сущность профессии, талант студента, возможности, наука, потребность в обучении, знания, умения, профессиональная компетентность, профессиональные советы.

Key words: choice of profession, education system, upbringing, needs, interests, interest, abilities, psychological characteristics, essence of the profession, student talent, opportunities, science, need for training, knowledge, skills, professional competence, professional advice.

KIRISH

PEDAGOGIKA

Hozirgi kunda davlatimiz va jamiyatimiz hayotida iqtisodiy, ijtmoiy, madaniy, siyosiy o'zgarishlar keng tus olmoqda. Bu o'zgarish va yangilanishlarga prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'lif va tarbiya masalalarini davlat siyosati darajasiga ko'targanliklari bizni yanada quvontiradi. Faqatgina quvontiribgina qolmay katta mas'uliyatni ham yuklaydi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lAMDAGI bunday islohotlar ta'lif-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasida davlat tashabbuskor hisoblanib, rahbarlik qilmoqda. Uzlusiz ta'lif-tarbiya tizimidagi yangilanishlar "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni asosida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda zamonaviy kasb-hunarlarga ega yosh kadrlarni tayyorlash, maktab bitiruvchilari va oliy ta'lif muassasalarida yoshlarni kasbga yo'naltirishning izchilligini ta'minlash uchun Respublikamizda umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lif va oliy ta'lif tizim bosqichlarini tubdan isloh qilish va rivojlantirish yo'lida yirik ishlarni amalga oshirilmoqda. Misol uchun aytishimiz mumkinki, ancha vaqtlardan beri o'zini oqlamayotgan kasb-hunar kollejlari soni sezilarli darajada qisqartirildi va hozirda faoliyat olib borilayotgan kasb-hunar kollejlari korxona va tashkilotlar ichki ehtiyojlaridan kelib chiqib taklifa asosan shartnomaga asosida qabul qilinadigan bo'ldi.

Jamiyat taraqqiyotida yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularni o'zlarini qiziqqan kasbga bo'lgan intilishlarini shakllantirish muhim va dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu yo'lida jamiyat, davlat bor kuchini berib yoshlarni foydali inson qilib shakllantirishga o'z e'tiborini beradi. Chunki, yoshlarni kasb egallashlari va jamiyat taraqqiyoti o'zaro bog'liq jarayondir. Kasb va uni egallash o'ziga xos bo'lgan murakkab jarayondir. Yoshlar bu jarayonni boshlaridan o'tkazar ekanlar o'zlarini uchun qaysi kasb qiziqarli va kerakli deb belgilab olishlari oson kechmaydi. Endigina bolalik davridan kattalar davriga o'sib o'tayotgan farzandlar berilgan tarbiyalari qarab har xil bo'ladilar. Ulardagi mavjud bo'lgan ruhiy jarayonlar, berilgan tarbiya va bilimlar kasb tanlashda muhim hisoblanishi zarur. Ammo unday ham emas. Chunki, ularni o'rabi turgan ko'plab katta yoshli insonlar o'z ta'sirlari bilan xihna xil maslahatlari bilan kasb tanlashlarida ikkilanishlarni vujudga keltiradilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Maktab bitiruvchilari va oliy ta'lif muassasalarida yoshlarni kasbga tayyorlash va shu kabi yo'naliishlarda anchagina olimlar ish olib borishgan va olib borishmoqda. Xususan pedagog olimlardan S.Ya.Batishev, V.P.Bespalko, N.V.Nikitin, V.A.Slastyonin kabilar yoshlarni ishlab chiqarishga, turli xil kasb-hunarlarga tayyorlash ishining ko'p qirrali sohalarini tadqiq etib, yoritdilar.

Yurtimizning mahoratlari pedagog olimlardan K.D.Davlatov, R.X.Djurayev, J.G.Yo'ldoshev, A.Mamajonov, I.Misliboyev, U.N.Nishonaliyev, N.S.Sayidahmedov, A.R.Xojaboyev, N.Sh.Shodiyev, Ya.Haydarov va boshqalar kasb - hunar ta'lifi sohalarida, jumladan, pedagog - mutaxassislarini tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish to'g'risida ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borganlar. Olimlardan R.Keldiyorov, Sh.Kurbanov, M.Ochilov, B.X.Raximov, E.O.Turdiqulov kabilar o'qituvchining kasb madaniyati va mahoratiga oid xususiyatlari borasida tadqiqot ishlarni olib borishgan. Sh.Baratov, G.Davletshin, V.Karimova, E.G'oziyev, B.Qodirov va boshqa olimlar o'quv faoliyatining psixologik tomonlarini, ta'lif - tarbiya jarayonining ruhiy xususiyatlarini tadqiq qildilar.

Yoshlarga kelgusi hayotlarida kasb - hunar o'rganish masalalari bilan M.E.Jumayev, B.R.Jo'rayeva, H.Ibragimov, X.Sariboyev va boshqa pedagog-olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borishgan.

Al Xorazmiy, Al Farg'oniy, Al Marg'iloniy, Abu Nosir Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, az-Zamahshariy, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiddin Muhammad Bobur kabi ko'plab donishmand- mutafakkirlar asarlarida ham yoshlarning odobi, axloqiy, ta'lif-tarbiyasi hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish to'g'risida turli fikr-mulohazalar bildirilgan.

O'qituvchilik kasbi bu o'tkinchi kasb emas. Insoniyat jamiyatini o'zi asrlar davomida ottirgan bilimlarini, malakalarini avloddan - avlodga yetkazib bermaganda, u hech qachon rivojlanmas edi. Demak, o'qituvchilik kasbi - bu ob'yektiv reallik bo'lib, jamiyat uchun zaruriy hodisa hisoblanadi va uning qadri hech ham so'nmaydi. Shu bilan aytish kerakki, hozirda kompyuterlashtirish, distansion o'qitish, elektron ma'ruzalar, baholashning boshqa ko'rinishlari o'qituvchi faoliyatini o'ziga xos

tarzda yanada kengroq o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda. Xohlaymizmi yo'qmi har qanday ta'lif va tarbiya o'qituvchisiz, uning jonli, emotsional nutqisiz zerikarli bo'lar edi. Albatta talaba o'zi ustida ishlashi, berilgan bilimlarni o'zlashtirib borishi zarur. Lekin o'qituvchisiz u mustaqil ishni bajarishi ham oxiriga yetmaydi. Shu o'rinda Yan Amos Komen斯基ning o'qituvchiga bergen yuksak ta'rifini keltirib o'tishni joiz deb topdik. U o'qituvchini "Quyosh ostidagi eng yuksak, unga teng kela oladigan narsa yo'qligini ko'rsatib o'tgan edi". O'qituvchi, pedagog - insoniyat tomonidan asrlar davomida ottirilgan bilimlarni, madaniy - tarixiy malakalami avloddan - avlodga yetkazib beradi va bu amaliy malakalami rivojlantirib ham boradi. O'qituvchi - bu o'sib borayotgan avlod va jamiyat o'rtasidagi vositachidir. U jamiyatni ishongan insoni, shaxsidir.

Kasbga yo'naltirishda ta'lif va uning muhim psixologik tomoni bu o'quvchilami berilgan bilimlami o'zlashtirishi hisoblanadi. Bu sohada N.D. Levitov o'zlashtirishning psixologik komponentlari tushunchasini fanga kirtdi. Uning fikricha, ana shu komponentlami faollashtirmsandan turib ta'lif muhitini va maqsadini amalga oshirib bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtida yuksak kasbga ega bo'lgan, ya'ni o'z fanini yaxshi bilgan, shuningdek chuqur metodologik va pedagogik - psixologik tayyorgarlikka ega bo'lgan, zukko, ijodkor, asli ziyoli va tashabbuskor o'qituvchilar zamonamizga zarurdir. Agarda bilim oluvchiga aynan shu soxaning mutaxasisi, bilimdoni bo'lgan ta'lif beruvchi yo'nalish berib bormasa albatta ta'lif sifati va samaradorligi ham pasayishi turgan gap. Shu bois ham kasbga yo'nlatirishda o'qituvchi shaxsi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilik kasbida o'z- o'zini anganganlik darajasi uning olib borayotgan faoliyatida ayniqsa ta'lif berish jarayonida nomoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar ilmiy termin bilan aytiganda "men konsepsiysi" deb ataladi. Insonlarda "men konsepsiysi" o'z-o'zidan shaxsiy xususiyatlar va turli tashqi muhitning omillariga bog'liq holda shakllana boradi.

Yetarli bo'limgan metodik ta'minlanmaganligiga qaramay va pedagogik - psixologik yo'nalishlarsiz o'qituvchi o'zining ichki subyektiv tomonlardan kelib chiqqan holda o'z faoliyatidan qoniqliyi yoki qoniqmasligi mumkin bo'ladi, o'zining kuchiga ishonish yoki ishonmaslik asosida o'z xatti - harakatlari tufayli o'qituvchida bir butun Men konsepsiysi shakllanib boradi.

O'qituvchi kasbga yo'naltiruvchi shaxs sifatida quyidagi talablarga javob berishi zarur: kasbiga doir barcha nazariy bilimlarga ega bo'lishi, nazariy bilimlarini amaliyatga tatbiq eta olishi, zamon talablariga mos ravishda yangiliklarni qabul qilish va tahlil eta olish, doimo o'z ustida tinmasdan ishlashi va innovatsion qobilatga ega bo'lishi, keng eruditsiyaga ega bo'lishi, pedagogik intuitsiyaga ega bo'lishi, yuksak tafakkurga ega bo'lishi, yuksak darajadagi axloqqa va madaniyatga ega bo'lish, yoshlarni tarbiyalashda va o'qitishda har xil ta'sirchan metodlarga ega bo'lish, xozirgi kun axborot texnologiyalarini o'rganish va keng tatbiq qila olishi zarur.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan o'qituvchi uchun zarur bo'lganlarining ma'lum bir qisminigina tashkil etadi xolos. Bizning oldimizda kasbga yo'naltirishdek muhim vazifa turgan ekan, bu borada bilishimish zarur bo'lgan va kerak bo'ladigan ko'nikma va malakalarning barchasi o'qituvchi deb atalmish qalb me'morlarida mujassam bo'limg'i darkor deb hisoblaynadi.

Bundan tashqari o'qituvchi psixologik vazifalarni ham amalga oshiradi. Bu borada A.I.Sherbekov o'qituvchining bir nechta psixologik vazifalarini yoritib bergen. Bular axborat berish vazifasi - bu materiallarni yaxshi egallaganlik va uni yetkazib bera olishlikda ko'rinadi. Keyingi vazifasi bu rivojlantiruvchanlik vazifasi bo'lib - bu maktab o'quvchisini bir butun holda shaxs sifatida taraqqiyotini boshqarish. Yana biri bu yo'naltirilganlik vazifasi - bu shaxsning yo'nalishlari, motivlari va g'oyalari bilan bog'liq. Uning yana bir vazifasi bu jalb qilishlilik vazifasi bo'lib - bu o'quvchilarni aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqilligini taraqqiy ettirish. Oxirgi vazifasi sifatida ijodkorlik vazifasini qo'yadi va ijodkorlik - bu pedagogik jarayonlardagi ijodiy izlanish, eksperimentlarini o'tkazishni bilish, malakalarini umumlashtirish va o'zini har doim o'stirib borish.

O'qituvchi o'quvchilarga dars beribgina qolmay, balki ularning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishlarini ham ta'minlab beruvchi asosni yaratishadi. O'zlarining beradigan bilimlari orqali ularni qiziqishlariga binoan ma'lum bir kasblarga yo'naltirib borishadi.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, o'qituvchi olib borayotgan faoliyat, kasbga yo'llash kabi ishlar darhol natija bermasligi mumkin. Ba'zan kerakli natijaga erishilguncha yillar sarf bo'lishi mumkin. Lekin nima bo'lganda ham o'qituvchi yoshlarning kasb tanlashida va bu jarayoning izchillikda amalga oshishida shaxs sifatida o'z ahamiyatini yillar davomida saqlab kelmoqda. Kasb tanlashda o'sib kelayotgan yoshlarga ta'lif va tarbiya beruvchi ustozlar borki ularni o'rnini hech

PEDAGOGIKA

nima bilan almashtirib bo'lmaydi. Maktab davrida yoshlar o'zları uchun qiziqarli bo'lgan kasblarni egallashga intilib boradilar. Bu davr uchun pedagogning o'rni butunlay boshqacha bo'lib qoladi. U endi faqat tarbiya va ta'lif beruvchigina emas, balki o'quvchilarni ma'lum bir kasbga bo'lgan intilishini shakllantiruvchi pedagog - psixolog ham bo'lib qoladi.

O'quvchi yoshlarni kasbga qiziqtiruvchilar orasida dastlabkilari, yo'llovchilar asosan otanonalar, yaqinlar, qarindosh-urug', do'st birodalar bo'lar ekan psixologlar fikricha. Bular ilk yo'llanmalarni bersalarda eng muhim hal qiluvchi shaxs sifatida o'qituvchi va murabbiylar muhim ahamiyatga ega ekanliklarini psixolog olimlar qayta - qayta ta'kidlashmoqda. Chunki, o'qituvchilar yuqorida sanab o'tilgan komponentlar asosida o'quvchilarni qanday o'qitish, qanaqa o'qitish lozimligini biluvchi mutaxasislar sanaladi. Bu borada maxsus metodika va uslublardan foydalangan holda misli kutilmagan ijobjiy natijalarni ko'rsatishlari kafolatlangandir. Shu bois o'qituvchilarimiz "Inson haykaltaroshi" sifatida ahamiyatli hisoblanishadi.

Maktab bitiruvchilari va oliv ta'lif yurtlarida yoshlarni kasbga yo'naltirish va o'zları uchun mos va xos bo'lgan kasbni tanlashi uchun nafaqat o'qituvchi va pedagoglar balki, aynan shu kasb egalari yordamida hosil qilinadigan ta'lif jarayonidagi qulay psixologik muhit ham muhim ahamiyatga ega. Albatta, ta'lif oluvchi shaxsda o'ziga va qobiliytlariga bo'lgan ishonch tuyg'usi ham katta o'rinni egallaydi. O'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini esa ta'lif beruvchilar turli metod va treninglar orqali yuzaga keltiradilar. O'quvchilarni yutuqlari uchun rag'batlantirish ham ularda o'zlariga bo'lgan ishonch tuyg'usini shakllanishiga turtki bo'ladi.

Kasbiy faoliyatga yo'llash jarayonida, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchilik va sinovlarga ham tayyorlab borish zarur. Turli to'siqlarni yengib o'tish, qaltis vaziyatlardan ustamonlik bilan chiqib keta olish, vaziyatni to'g'ri baholash kabi ko'nikmalarning shakllantirilishi ham ta'lif muassasining muhim faoliyat yo'nalishlarini egallamog'i lozim. Aynan shu kabi omillarga tayyorlab borilsa o'quvchilar kelajakda o'zları egallagan kasbning mohir ustasi bo'lib yetishishlari mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kasbga yo'naltirish jarayoni bu ta'lif tizimi bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish - bu psixologik - pedagogik va meditsinaga oid kompleks tadbirlarning birligidir. Kasbga yo'naltirishning ikki xil shakli mavjud. Biri o'quv maskanlarida kasbga tayyorlash davomida yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlab borish bo'lsa, ikkinchisi yoshlarni kasblar dunyosi bilan tanishtirish orqali ularni kasbga yo'llash hisoblanadi. Kasbga yo'naltirishni ta'lif jarayonlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, ta'lif - bu bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni bo'lib, insonni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Inson ta'lif jarayonida ma'lumot, bilim oladi va tarbiyalanib boradi. Kasbga yo'naltirish bu eng avvalo kasb o'rganuvchiga ma'lumot, bilim berish, uni o'zi qiziqqan kasbni egallashi uchun shu kasblar haqida o'ziga xos bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish hisoblanadi. Ta'lif jarayonining natijasi bu insonni jamiyatda o'z o'rnnini topishga, kasbiy faoliyat davomida aniq maqsadlarga erishishga olib keladi.

T.Edison Amerikaning ko'zga ko'ringan olimi ta'lif haqida fikr bildirib shunday yozadi: "Sivilizatsiyaning buyuk vazifasi, odamni fikrlashga o'rgatishdir". Ya. Komenskiy ta'lif qanday bo'lishi haqida fikr bildirib, "Ta'lif haqiqiy, to'la, ravshan va mustahkam bo'lmog'i zarur"[3,155 - 159.] deb ko'rsatadi. Ta'lif bu kasb olishning maxsus yo'li sifatida ko'pgina shaxslarni o'ziga xos e'tibor berishlarini talab qiladi. Kasbga yo'naltirishda ustozlarni, ota - onani o'mni juda kattadir. Ularga to'g'ri yo'l ko'rsatishda, kasb tanlashlarini tashkil etishda ular tashkil etgan muhitning o'rni juda muhimdir. "Buning uchun har qaysi ota - ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta'lif - tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lif va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi"[2, 61]. Yoshlarga ta'lif berib, ularni kasbga yo'naltirishdan iborat asosiy vazifa - bu o'quvchilarni fan asoslarni faol, ongli, mustahkam va tizimli ravishda egallashlarini ta'minlash hisoblanadi. Kasbga yo'naltirilgan ta'lif o'zining psixologik tomonlari bilan kasb oluvchining va kasbga yo'naltiruvchining birgalikdagi o'zaro munosabatlardan kelib chiqqan holda ta'lif muhitini yaratadi. Bunda ta'lifning xarakteri o'zlashtirilayotgan materialga, uning mazmuniga, bu materiallar qanday tizimda yetkazib berilayotganiga e'tibor bersak bu muhitning bir tomonini tashkil etishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Ikkinci tomoni esa o'qituvchining bilimiga, uslubiy mahoratiga, tajribasiga, shaxsiy xususiyatlariiga, o'ziga xos bo'lgan qaytarilmas usullaridan foydalana olishiga bog'liqdir.

Uning uchinchi tomoni esa bu kasb o'rganuvchining o'ziga xos xususiyatlari, uning psixik rivojlanishi (aqliy, emotsional, irodaviy jihatlari va bosh.), uning o'qishga nisbatan qaror topgan munosabatlari, qiziqish - havaslariga bog'liqdir.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'quvchilarni kasbga yo'naltrishning masalasi nafaqat O'zbekistonda Respublikasida balki barcha rivojlangan davlatlarda ham ta'lif jarayonida muhim o'rinni egallaydi. Shunday ekan, o'qituvchining roli har qanday muhitda, xoh oliy ta'lif muassasasida bo'lsin, xoh maktabda bo'lsin, ajralmas hisoblanadi, chunki inson barkamol shaxs sifatida shakllanishi zarur. Shuning uchun o'qituvchi qator o'quvchilarning o'qishga ijobjiy munosabatda bo'lishi, material bilan bilan bevosita hissiy tanishish jarayonlari, olingan materialni faol ravishda qayta ishlash jarayoni bo'lgan fikrlash jarayoni, qabul qilingan hamda ishlab chiqilgan axborotni esda saqlash komponentlarga ega bo'lishi talab etiladi. Zero, unga asoslanib, o'qituvchining bevosita rahbarligida talabalar kasbiga nisbatan ijobjiy munosabatlar uyg'onadi. Bu jmunosabatni o'rganish esa, pedagogik tadqiqotning mustaqil ilmiy-amaliy masalasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллӣ базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 oktyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lif muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lif berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmularini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 868-son qarori.
3. Xudoynazarov.T.A. Sharq allomalarining yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish to'g'risidagi mulohazalarining bugungi kundagi o'mi. Maktab va hayot. 2004. №2.
4. Rafiqova.D.K. Amaliy ta'lifning nazariy asoslarini shakllantirish// Jamiyat va Innovatsiyalar-Society and Innovations Special Issue -8 (2021) / ISSN 2181 – 1415
5. Rafiqova.D.K. Общечеловеческие ценности и их значение в углублении мирового сотрудничества// Проблемы современной науки и образования. 2019. №10 (143) Научно-методический журнал. Москва 2019 г. 117-119 стр.